

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi 2025-yil HISOBOTI

I. Umumiy ma'lumot

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 6-maydagi 01/136-um-son buyrug'i bilan Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining korrupsiyaga oid harakatlar to'g'risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va qayta ishlash reglamenti tasdiqlangan.

Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi ish yurituviga 2025 yilda Jismoniy va yuridik shaxslardan jami 1178 ta murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan 197 tasi jismoniy shaxslardan, 981 tasi yuridik shaxslardan kelib tushgan. Ushbu murojaatlarning 1173 tasi ijobiy hal etilgan bo'lib 5 tasi Qo'mita vakolatiga kirmagan masala bo'lganligi sababli boshqa tashkilotlarga yo'naltirilgan bo'lsa 11 tasi korrupsiya faktlariga doir bo'lganligi uchun alohida nazorat tartibida o'rganib chiqilgan.

II. Ko'rib chiqish natijalari

Qo'mitaning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassisi tomonidan korrupsiya faktlariga doir qabul qilingan 11 ta murojaat alohida nazoratda ko'rib chiqilib, murojaatda ta'kidlangan holatlar dastlabki o'rganishda 6 tasi o'z isbotini topmaganligini, murojaatdagi holatlar qo'mita faoliyatiga oid emasligi sababli huquqiy tushuntirish berilgan bo'lib, 4 ta holatda xodimlar bilan profilaktik suhbat o'tkazilgan hamda 1 ta holatda xizmat tekshiruvi tayinlanib hujjatlar prokuratura organlariga yuborilgan.

III. Minimallashtirish choralari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi markaziy apparatida va hududiy tuzilmalarida korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish yuzasidan targ'ibot doskalari va davlat inspektorlari ish stollarida ishonch telefoni va targ'ibot mavzulari yozilgan tablichkalar joylashtirilgan.

Shuningdek, Ommaviy axborot vositalariga kontent tayyorlash markazi hamda Qo'mita tomonidan "Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning natijalarini OAV, rasmiy sahifalar hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritish buyicha" 2025-yil oktabr-dekabr oylari uchun MEDIA-REJA tasdiqlangan. Mazkur reja asosida brifing va OAVga chiqishlar tashkil qilinib, aholi va tadbirkorlarni habardorligi oshirilmoqda.

Bundan tashqari, xabarlarni ko'rib chiqish va kelgusida yo'l qo'ymaslik yuzasidan tegishli profilaktik va tushuntirish ishlari amalga oshirilgan, inson omili mavjud sohalarni raqamlashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilib, umumiy nazorat va monitoring ishlari doimiy amalga oshirib borilmoqda.

**Qo'mitaning korrupsiyaga qarshi
kurashish bo'yicha bosh mutaxassisi**



Sh.Z.Sattarov